

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODIY FAOLIYATIGA IJTIMOIIY TAHLILIIY
YONDASHUV**

*P. Begbudieva*¹

Annotatsiya:

Bu maqolada ma’rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy ijodiy faoliyatiga bugungi kun nuqtai nazarida ilmiy mulohazalar berildi. Mahmudxo’ja Behbudiy shaxsiyatiga zamondoshlari va bugungi zamonaviy olimlarimiz tomonida berilgan ta’riflar ham keltirilgan. Jadidlar ijodiga yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvar, jadid, zamona, ta’sir, matbuot, maqola, noshir, ijod

doi: <https://doi.org/10.2024/fatps492>

Ma’luki Mahmudxo’ja Behbudiy nihoyat og’ir va murakkab zamonda yashab ijod qilgan mutafakkirlardan biridir. Uning o’zi haqida yozgan birorbir tarjimai holi yo’q. Ammo u haqidagi ma’lumotlar zamondoshlari va shogirdlari bo’lgan Xoji Muyin, Said Rizo Alizoda, Sadridin Ayniy, Vadud Maxmudlar o’z davrining vaqtli nashrlari va matbuotlarida chop etgan ma’qolalarida o’zlarining xotiralarida Mahmudxo’ja Behbudiy hayoti bilan bizlarni tanishtiradi. Mazkur xotiralardan ma’lum bo’ladiki, Mahmudxo’ja Behbudiyning hayoti juda og’ir va mashaqqatli o’tgan. To’rt tomondan bosim ko’rsatilgan, birinchidan, chor hukumati zobitlarining doimiy nazoratida bo’lgan, ikkinchidan, chala savodli domlalar tomonidan Mahmudxo’ja Behbudiy qilgan ishlari sabab uni kofirlikda ayblagan, uchinchi tomondan esa bolsheviklar xukumatining ta’siri, va nixoyat Buxoro amiri Mahmudxo’ja Behbudiyni o’zining shaxsiy dushmani deb e’lon qilgani bo’ng’a dalil bo’ladi.

Aslida, bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiyni ikki marta o’ldirishgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Birinchi marotaba 1919 yilda Buxoro amirining josuslari tomonidan qatil qilingani bo’lsa, o’sha vaqtda matbuotda bu haqda juda ko’p ta’ziyalar e’lon qilingan va Qarshi shahriga Behbudiy nomi ham berilgan edi. S.Ayniy, Fitrat, Cho’lpon, Vadud Mahmudlar marsiya yozgan edi. Ikkinchi marotaba sho’rolar davrida ma’nan o’ldirigan ya’ni Mahmudxo’ja Behbudiyni xalq dushmani deb e’lon qilgan. Bu xalq dushmani tamg’asi deyarli 30-40 yil davom etdi. Bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiyning nomini tilga olish jinoyat darajasida xavfli edi. Ammo o’sha davrda ham jasoratli ma’rifatparvar olimlarimiz vatanparvar jadidlar hayoti va ijodiy faoliyatini o’rganishda kamarbasta bo’ldilar. Bunday olimlarimizdan filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimov oxirgi 30-40 yillarda Behbudiyga bag’ishlangan yuzlab maqolalar va ocherklar nashr qildilar. Akademik Naim Karimov, professorlar Dilorom Alimova, Halim Sayidlar kitoblar yozishdi.

¹ *Begbudieva Parvina Shoxruxovna, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi*

Professor Begali Qosimov rahbarligi ostida 1996 yil Mahmudxo'ja Behbudiyning ilk bora "Tanlangan asarlar" nomi ostida birinchi ilmiy to'plam nashri chop etildi, bu kitob qayta yana ikki bor nashr qilindi. Sirojiddin Axmad tomonidan 2018 yilda to'ldirgan "Tanlangan asarlar" nomi ostida nashrga tayyorlangan ikki tomli mazkur to'plam qayta chop etildi. Bu kitobning nashr etilishiga professorlar Bahodir Karimov va Zaynobiddin Abdirashidovlarning xizmatlari katta.

Ma'rifatparvar mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiyning jamiyat hayotidagi xizmatlarini biz o'zimizning ilmiy xulosalarimizda fransuz ma'rifatparvaprlaridan Jan Jak Russo, ruslarning Lomonosov, Fonvizin, Chernishevskiy, kafkaz turklarining Fatali va Najafbeklari, tatarlarning Marjoniy va Nosiriysilari bilan tengdir deya ta'riflashimiz mumkin.

O'z davrida Laziz Azizzoda ta'biri bilan aytganda - "O'zbek milliy adabiyoti ham Behbudiy ila boshlanib yangi bir yo'lga kiradir. Behbudiy Turkistonni eng avval chor hukumati qo'lidan qutqarmoq fikrini elga talqin qilguvchilardandir deydi. Akademik Naim Karimovning ta'rifiga ko'ra "XX asr boshlarida mamlakatimizda milliy uyg'onish harakatini boshlab bergan fidoi kishilardan biri va birinchisi Mahmudxo'ja Behbudiydir" deb ta'rif beradi.¹ So'ngi jadid nomi bilan mashhur professor Begali Qosimov ta'rificha "Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi.² Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil davlat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi" deydi.

Adabiyotshunos olim Xalim Said ta'rificha "Asosiy maqsad shu ediki, yurti mutamlakachilardan ozod qilish, shuning barobarida, bu ozod yurtda davlatni boshqaradigan aqlli siyosatchilar, iqtisodchilar, xuquqshunoslar, fidoi olimlar va fozil fuqaroni ko'paytirish" edi deb ta'rif beradi.³

Shu kabi ta'riflar birqator olimlarimiz jumladan, Dilorom Alimova, Shuxrat Rizaev, Baxodir Karimov, Zaynobiddin Abdirashidov, Nusrat Raxmat, Boybuta Dusqoraev, Zebo Axrorova, Nilufar Namozova va boshqa jonkuyar ziyolilari tomonidan ham berilgan. Bu o'rinda shubhasiz, savol paydo bo'lishi mumkin. Nega bu olimlar Mahmudxo'ja Behbudiy shahsiyatiga bunday balandparvoz baho berishadi?

Bu savolga esa biz Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zidan javob olishga harakat kilamiz. Masalan: «Gosudarskiy dumaga Turkistondan vakil olmoq», «Turkiston xalqi har huquqga rusiylar ila barobar bo'lmoq» nomli maqolalarida "Rusiya o'rta va oliy maktablariga Turkiston musulmonlari kirmoq uchun tadbir joriy etmoq va anda dini islom va adabiyoti mahalliy muallimlari tayin qilmoq, zabt bo'lgan boyliklarni qaytarmoq, ziroat, sanoat va tijorat maktablari ochilib, musulmonlarga qulay tarzda o'quv dasturdari va shunga o'xshash diniy va zamonaviy hamda mulkiy ehtiyojlar yozmoq" deydi.

Imperator vakili graf Pallenga taqdim etilgan talabnomadan. "Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va HAQ OLINUR - BERILMAS! Ya'ni, Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, BOSHQALAR TARAFINDAN BERILMAS" kabi maqolalar yozgan. Umuman olganda Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qarashlarini yurakdan

¹ Naim Karimov "Maxmudxoja Behbudiy" Tashkent "akademnashr 2022-yil

² Begali Kosimov. "Maxmudxoja Behbudiy" "Tanlangan asarlar" Toshkent "Ma'naviyat" nashriyati 2020-yil.

³ Xalim Said "Ma'rifat libosidagi ozodlik" Shark nashriyati Toshkent 2000-yil

kuyinib maqolalarda yozadilar. Misol uchun o'zining Bizni kemirguvchi illatlar maqolasida "Astag'furillo, subhanolloh. Bizni qiladurg'on aqlsizlig'imizni qaysi millat kilur? Nikoh, xatna – bu ikki balo shundoq qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulib bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtaxol xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar, o'g'ul xatnasi uchun ming so'm. Oxiri nima bo'lur? Otabobosidan qolgan mulk va vatanini o'z ixtiyori bilan zo'raki boyni o'zi o'lgandan so'ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyga sotib, tuy va ta'ziya karzini berar. Yana bir misol: Subhanolloh, bu na hol! Bu XX-asrdur, vahshiy toifalargacha zamona ilm va hunarining qadrini bildilar, zamona ilm va hunarga qo'l o'rdilar. Ey, biz Tukistoniy va buxoriylar, na uchun bu holdamiz? Dunyoda turmoqni xohlasang, zamona ilm hunariga maktab va dorulfuniga mayl etmog'imiz kerak. Chunki buningsiz zamona odami bo'lmaydur"¹ - deya bugungacha millatni badnom qiluvchi illatlarni bundan 100 yillar oldin aytib o'tgan edilar.

Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning boy ma'naviy merosi jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning merosi juda boydir. Baxtimizga bu merosni o'rganishga bugungi yoshlar olimlarimiz ham qizikmoqda. Bir qator ilmiy tadqiqotlar diplom ishlari va doktorlik ishlari natijasida ko'plab ilmiy yangiliklar aniqlanmoqda. Albatta buday tadqiqotlar jadidlarning hayoti va ijodini targ'ib qilishda katta rol o'ynaydi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, davlatimiz rahbari tomonidan jadidchilik harakatlariga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirzиеev qarori bilan ma'rifatparvar jadidlar xususan, "Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidov, Maxmudho'ja Behbudiylarni «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni" bilan taqdirladi. Toshkent shahridagi adiblar hiyobonida ularning nomiga xaykallar o'rnatildi. Samarqand shahrida

"Mahmudxo'ja Behbudi" uy muzeyi tashkil qilindi. Jadidlarning faoliyatlariga asoslangan "Xalqaro anjumanlar" va "badiiy kechalar" tashkil qilinmoqda. Albatta bu harakatlarning hammasi – JADID bobolarimizga ko'rsatilayotgan e'tibor va xurmat namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Naim Karimov "Mahmudxoja Behbudi" Tashkent "akademnashr 2022-yil
- [2]. Begali Kosimov. "Mahmudxoja Behbudi" "Tanlangan asarlar" Toshkent "Ma'naviyat" nashriyati 2020-yil.
- [3]. Xalim Said "Ma'rifat libosidagi ozodlik" Shark nashriyati Toshkent 2000-yil
- [4]. Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2018.
- [5]. Laziz Azizzoda "Maorif va ukituvchi" 1926-yil mart. № 2(14).

¹ Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2018.